



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## KITOBXONLIK-BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OQUVCHI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILI.

**Ashirova Barchinoy Shuhrat qizi**

*Ozbekiston Milliy Pedagogika Universiteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lif jarayonida kitobxonlikning ahamiyati, o'quvchi tafakkurini rivojlanirishdagi o'rni hamda kitobxonlik faoliyatini shakllantirishning samarali yo'llari yoritilgan. Maqolada kitobning bola tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining kitobxonlikni tashkil etishdagi vazifalari, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining ahamiyati, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarda

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik, boshlang'ich ta'lif, tafakkur, mustaqil fikrlash, o'qish madaniyati, o'quvchi faoliyati. kitob o'qishga qiziqishni oshirish

Boshlang'ich ta'lif - bu bola shaxsining ilk shakllanish bosqichi bo'lib, uning butun keyingi ta'lif jarayoniga poydevor yaratadi. Shu davrda o'quvchining tafakkuri, xotirasi, diqqat va tasavvuri faol shakllanadi. Kitob o'qish esa ushbu jarayonni yanada chuqurlashtiruvchi eng samarali vositadir. Chunki kitob o'qish bolaning nafaqat bilimi, balki ruhiy olami, tasavvuri, nutqi va tafakkurini boyitadi. Kitob inson tafakkurining kaliti, bilim manbai va ma'naviyat o'chog'idir. Ayniqsa, o'qishga endigina kirgan kichik yoshdagi bolalar uchun kitob - kashfiyot, yangi dunyo, o'zini va atrofini anglash vositasidir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik faoliyatini shakllantirish ularning tafakkurini, nutqini, mustaqil fikrlashini va ijodiy salohiyatini rivojlaniradi. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otuvchi asosiy shaxsdir. U bolalarda o'qish madaniyatini shakllantirish uchun birinchi navbatda o'qish jarayonini qiziqarli, hayotiy va mazmunli tashkil etishi kerak. Bunda har bir o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, 1-2-sinf o'quvchilariga ertaklar, sarguzasht hikoyalar, she'rlar; 3-4-sinf o'quvchilariga esa badiiy asarlardan parchalar, voqeiy hikoyalar, qiziqarli ma'rifiy kitoblar tavsiya etilishi mumkin. Kitobxonlikni shakllantirishda o'qituvchining motivatsion yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'qishdan zavq olishi uchun o'qituvchi darslarni interaktiv shaklda o'tkazishi, asarlarni sahnalaştirish, rolli o'yinlar, rasm chizish, fikr bildirish, muhokama qilish kabi faol metodlardan foydalanishi zarur. Bunday faoliyat jarayonida bola faqat o'quvchi emas, balki faol ishtirokchi, tinglovchi, tahlilchi va ijodkor sifatida shakllanadi. sinflar.

Boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar ko'pincha "Sinfdan tashqari o'qish", "O'qish bayrami", "Eng faol kitobxon", "Sevimli asar qahramonim" kabi tadbirlarni o'tkazishadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Bu tadbirlar o‘quvchilarda raqobat ruhini, o‘z fikrini ifodalash qobiliyatini, asarga munosabat bildirish madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, bunday faoliyatlar orqali bola o‘qish jarayonini majburiyat deb emas, balki zavqli mashg‘ulot sifatida qabul qiladi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab kutubxonasi ham alohida ahamiyatga ega. Kutubxona - o‘quvchi uchun bilim va tafakkur maktabitidir. O‘qituvchi kutubxonachi bilan hamkorlikda o‘quvchilarga mos kitoblar ro‘yxatini tuzishi, “Kutubxona kuni”, “O‘qib eshittir”, “Kitob sovg‘a qil” kabi tadbirlarni yo‘lga qo‘yishi kerak. Bunday ishlar o‘quvchilarni kitob bilan do‘sitashtiradi, ularni mustaqil tanlash, baholash va fikr bildirishga o‘rgatadi.

Shuningdek, oilaviy muhit ham kitobxonlikni shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Ota-onaning o‘zi kitob o‘qiydigan bo‘lsa, bola ham tabiiy ravishda shu an’anaga amal qiladi. Kechqurun birgalikda ertak o‘qish, o‘qilgan hikoyani muhokama qilish, farzanddan o‘qigan asari haqida so‘rash - bu oddiy, ammo samarali usullardir. Bu orqali bola kitobni hayotining bir qismiga aylantiradi, o‘qish odatini mustahkamlaydi.

Kitobxonlikning o‘quvchi tafakkuriga ta’siri juda kengdir. Kitob o‘qigan bola:  
so‘z boyligini oshiradi;  
nutqini raxonlashtiradi;  
xotirasi va diqqatini kuchaytiradi;  
voqealarni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarishni o‘rganadi;  
tasavvuri kengayadi, ijodiy fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Bundan tashqari, kitob o‘qish orqali o‘quvchi o‘zini, jamiyatni, atrof-muhitni anglay boshlaydi. U har bir asardan hayotiy saboq oladi, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Shu tariqa tafakkur jarayoni chuqurlashadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, bolalarda kitob o‘qishga qiziqish pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli zamонавиy o‘qituvchi kitobxonlikni targ‘ib etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishi zarur. Masalan, elektron kitoblar, audiokitoblar, interaktiv o‘qish dasturlari yordamida bolalarda o‘qish madaniyatini shakllantirish mumkin. imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. O‘quvchilar uchun yaratilgan mobil ilovalar, onlayn kutubxonalar, virtual o‘qish klublari kitobxonlikni yanada ommalashtiradi.

O‘qish darslarida ijodiy topshiriqlar berish ham o‘quvchi tafakkurini faollashtiradi. Masalan, o‘qilgan hikoya asosida davom yozish, yangi yakun o‘ylab topish, qahramonga xat yozish, asar asosida rasm chizish kabi topshiriqlar bolaning tasavvuri va ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. Shuningdek, bu usullar orqali bola asar mazmunini chuqurroq anglaydi, voqealar rivojiga o‘z nuqtayi nazaridan baho beradi. Pedagogika fanida kitobxonlikni shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvda har bir o‘quvchining qiziqishi, imkoniyati, o‘qish sur’ati va uslubi hisobga olinadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O'qituvchi ayrim o'quvchilarga qisqa, soddarоq asarlar tavsiya etadi, boshqalariga esa murakkabroq, tahliliy asarlar beradi. Bu orqali har bir o'quvchining tafakkuri o'z darajasida rivojlanadi.

Kitobxonlik faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi baholash mezonlarini ham ishlab chiqishi lozim. Masalan, o'quvchi o'qigan kitoblar soni, asarlar mazmunini qay darajada anglagani, fikrini og'zaki va yozma shaklda ifodalashi bo'yicha baholanishi mumkin. Bu o'quvchini muntazam o'qishga, kitobni chuqr o'rganishga undaydi.

Bundan tashqari, o'quvchilarni adabiy mualliflar bilan tanishtirish, asarlardan parchalar yod olish, qahramonlar siyemosini tahlil qilish kabi mashg'ulotlar ularning badiiy didini shakllantiradi. Shu orqali o'quvchi nafaqat o'qishdan zavq oladi, balki hayotiy qadriyatlarni ham o'zlashtiradi. Shunday qilib, kitobxonlik o'quvchi tafakkurini har tomonlama rivojlanadir. U bolaning bilish faoliyatini faollashtiradi, tafakkurini kengaytiradi, nutqini boyitadi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi. Kitob o'qigan bola hayotda faol, izlanuvchan, maqsad sari intiluvchi shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli, kitobxonlikni shakllantirish boshlang'ich ta'limning ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi zarur. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atda rivojlanayotgan davrda yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini yuksaltirishda kitobxonlikning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchini kitob bilan do'st tutish, uni o'qishga rag'batlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish ta'lim-tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu bosqich bolaning tafakkuri shakllanadigan, fikrlash qobiliyati, dunyonidagi idrok etish uslubi, mantiqiy fikr yuritish jarayonlari asos solinadigan davrdir. Kitob inson tafakkurining eng ishonchli manbai, ma'naviyat kaliti va bilim qurolidir. O'qigan bola so'z boyligini kengaytiradi, nutqi ravonlashadi, xotirasi mustahkamlanadi, tahliliy fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi. Shu boisdan ham boshlang'ich sinfda kitobxonlikni shakllantirish, bolalarda o'qishga mehr uyg'otish, o'qish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish pedagogik jarayonning markazida turishi kerak. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchining roli beqiyos. U nafaqat o'quvchiga harflarni tanitadi, balki uni o'qilgan matnni his etishga, g'oyani anglashga, o'qishdan zavq olishga o'rgatadi. Har bir darsda o'qituvchi kitobni hayot bilan bog'lay olishi, asardagi qahramonlar misolida bolalarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalashi lozim. Shu bilan birga, o'qish darslarida turli interfaol usullardan - "Venn diagrammasi", "Klaster", "Insert", "Fishbon", "BBB jadvali" kabi metodlardan foydalanish o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni tahlil qilish va xulosa chiqarishga undaydi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oila va matabning hamkorligi ham alohida ahamiyatga ega. Bola o'qituvchidan o'rganganlarini uyda ota-onasi bilan mustahkamla, bu jarayon yanada samarali kechadi. "Ota-onam bilan o'qiyman", "Hafta kitobi", "Sevimli asarim" kabi loyihalar bolalarda o'qishga nisbatan iliq munosabat shakllantiradi. Shuningdek, maktab kutubxonasida bolalar yoshiga mos, milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi badiiy adabiyotlarning ko'pligi ularning dunyoqarashini kengaytiradi, ma'naviy barkamolligiga xizmat qiladi.

Zamonaviy davrda kitobxonlikni targ'ib etish jarayoniga innovatsion yondashuv kiritish zarur. Elektron kitoblar, audio asarlar, mobil ilovalar, raqamli kutubxonalar o'quvchilarni texnologiya orqali kitob o'qishga jalb etadi. Biroq, bunda o'qituvchi asosiy e'tiborni bolada an'anaviy kitobni qadrlash, sahifalarni varaqlab o'qish lazzatini his etish kabi tuyg'ularni shakllantirishga qaratishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlik - o'quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi, ma'naviyatini boyituvchi, uni mustaqil fikrlashga undovchi eng kuchli tarbiyaviy vositadir. Kitobga oshno bo'lgan bola faqat o'qimishli emas, balki odobli, zakovatli, ma'rifatli inson sifatida kamol topadi. Shu boisdan har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uchun asosiy maqsad - o'quvchini kitobga oshno etish, unda o'qish ehtiyojini uyg'otish, tafakkurini mustahkamlashdir. Demak, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o'quvchi tafakkurining kaliti, millat poydevori va kelajak avlod kamolotining kafolatidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mavlonova R.,Arabova M., Salohitdinova G'. Pedagogik texnalogiya. -T. :"Fan" nashriyoti, 2008-y.
- 2.www.ziyonet.uz.
- 3.www.edu.uz.

